

ALISHER NAVOIYNING LIRIK MAHORATI

F.f.n. Soatova Dilbar Akbarovna

Jizzax politexnika institut.

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi .

Gmail: dilbarsoatova@gmail.com

Trasova Tamara Nikolayevna

Belarusiya davlat pedagogika universiteti

o'qituvchisi Gmail: fifak@bspu.by

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

Lirik, epik, devon, badiiy san'at, adabiyot oqimlar, mushfiqlik, to'g'rilik, halollik, jonli obrazlar, tadrij, tazod, tanosub, husni ta'lil, tajohuli orifona, zolim va malzum, laf va nashr.

Annotatsiya

Mazkur maqolamizda Alisher Navoiy nafaqat o'zbek adabiyotining, balki jahon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri ekanligi, Navoiydan qolgan buyuk adabiy meros bir necha asrlar davomida o'rta va yaqin sharq xalqlarining adabiyoti va fikriy taraqqiyotiga katta ta'sirni yoritishga harakat qilamiz..

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Yuksak madaniyatga erishgan har bir xalqning shunday buyuk farzandlari bo'ladiki, ular nafaqat o'z yurti, balki umumjahon tafakkur ahlining hurmat-e'tiborida bo'ladi. Ana shunday buyuk zotlardan biri Alisher Navoiy yuqori kamolat bosqichidagi buyuk aql egasi-chin ma'nosi bilan ulug' mutafakkir shoirdir.

Alisher Navoiy juda katta boy lirik va epik xazina yaratib qoldirdi. Ushbu lirik xazinaning asosini o'z ichiga 4 devonni qamrab olgan «Xazoyin ul-maoniy», fors-tojik tilidagi katta asari «Devoni foniy», «Nazmul javohir», «Munshaot», «Vaqfiya», «Xamsat ul-mutaxayyirin», «Holoti pahlavon mahmud», «Holoti said Hasan Ardasher», «Muhokamat ul-lug'atayin» va «Mezon ul-avzon» kabi asarlar tashkil etgan bo'lsa, epik asarlarining asosini «Xamsa», «Lison-ut tayr» asarlari tashkil etdi.

Alisher Navoiy betakror lirik shoirdir. U lirik shariatni faqat mavzu va g'oyaviy mazmun jihatidagina emas, balki badiiy jihatdan ham yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tardi. Navoiydek ulug' shoir tomonidan 55 ming misra atrofidagi lirik she'rlar («Devoni foniy» ham qo'shib) dunyo adabiyoti tarixida, sharqda va g'arbda misli ko'rilmagan darajada ulkan xazinadir.

1492-1498 yillar o'rtasida Navoiy o'zining avvalgi ikki devoni «Badoyi ul-bidoya» (badiiylilik ibtidosi) bilan «Navodir un-nihoya» (behad nodirliklar)dagi she'rlariga bu ikki devondan so'ng yaratilgan she'rlarini qo'shib, XV asr poeziyasining buyuk epopeyasi hisoblangan 44901 misradan iborat to'rt qismli «Xazoyin ul-maoniy» kitobini tuzdi. Bu kitobni shoir o'zi bosib o'tgan hayot yo'lining to'rt davriga (bolalik, yigitlik, o'rta yosh va keksalik) moslashtirib, to'rt devonga ajratgan va ularni quyidagicha nomlagan.

1. G'aroyib us-sig'ar (yoshlikning g'aroybotlari) 840she'r 11437misra
2. Navodir ush-shabob (yigitlik nodirliklari) 759she'r 10847misra
3. Badoyi ul-vasad(o'rta yoshlikning go'zalliklari) 740she'r 10840misra
4. Favoyid ul-kibar (keksalikning foydalari) 793she'r 11776misra

Alisher Navoiyning lirika taraqqiyotidagi katta xizmati shundaki, u she'riyatning tor mavzu doirasini yorib chiqib, ijtimoiy hayotning xilma-xil masalalarini she'rlariga mavzu qilib oldi, lirik poeziyaning g'oyaviy ohanglarini falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-talimiy masalalar bilan boyitdi. Shuning uchun ham shoir ushbu devonini "ma'nolar xazinasi" deb atagan edi.

Sevgi va sadoqat, visol ishtiyoqi va hijron iztirobi, vafo va do'stlik, shavqat va marhamat, vatanga va xalqqa muhabbat, insof va adolat, mehnat va ma'rifat, odob va tavoze, himmat va sahovat, halollik, to'g'rilik va boshqalar navoiy lirikasidagi masalalar silsilasini tashkil etadi.

Alisher Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt saodati uchun kurashga, halqning osoyishtaligiga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, adabiyot va san'at taraqqiyotiga bahshida etdi. U juda ko'p o'qishi, o'qiganda ham o'qib o'qishi tufayli ulug' donishmand, davlat arbobi, o'zbek adabiy tiliga asos solgan va o'zbek mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan buyuk so'z san'atkori, iste'dodli olim bo'lib etishdi, juda qimmatli asarlar yaratdi, davrining madaniy hayotiga rahbar, ilm-fan, san'at va adabiyot oqimlariga homiy, ko'plab shogirdlar etishtirgan ustoz bo'ldi.

Navoiy o'z asarlarida u xoh lirik, bo'lsin, xoh epik bo'lsin hayot va insonni tarannum etdi. U hayotni e'tirof qiladi, uni sevadi, insonni sharafloydi va ulug'laydi. zero, olamning olam bo'lib yaratilishi ham asosan hayot guli bo'lgan inson uchundir.

U inson dunyoga kelar ekan, hamisha hayotini, o'zligini, umrini sevishi, qadrlashi kerak deydi.

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,
Har neniki sevmak andin ortiq bo'lmas,
Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

Navoiyning fikricha, inson hayotining mohiyati uning qisqa va uzunligi bilan emas, balki mazmuni bilan belgilanadi. Hayotdan murod faqat aysh-ishrat emas, hayotning mezoni insonning faoliyati, xatti-harakati, sifati va fazilatidir. Inson hayotini o'zi uchun ham, butun jamiyat uchun ham foydali bo'lgan xizmatga bag'ishlashi, kasb-hunar o'rganishi, ma'rifatli bo'lishi, yaxshi fazilatlarni egallashi kerak. shundagina, u o'z insoniy burchini ado etgan barkamol inson bo'ladi:

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom etmak baayni
Erur hammomdan nopok chiqmoq.

Insonning hayoti abadiy emas. Shunday ekan, kishi hayotdan to'la foydalanishi, har bir daqiqaning qadr-qimmatini bilishi kerak. Ey Navoiy, umr o'tar eldek, o'zingni shod tut,

Elga etmak mumkin ermastur chu sur'at ko'rguzib.

Biroq inson hayotining mohiyati uning qisqa yoki uzunligi bilan emas, balki mazmuni bilan belgilanadi. inson hayotini o'zi uchun ham, butun jamiyat uchun ham foydali bo'lgan xizmatga bag'ishlashi, ma'rifatli bo'lishi, ilm-fanni chuqur egallashi, kasb-hunar o'rganishi, yaxshi fazilatlarga ega bo'lishi lozim.

Navoiy ijodida ayniqsa, g'azallarida sevgi va muhabbat, do'stlik va sadoqat mavzulari keng o'rin egallaydi. Uning sevgi lirikasi oshiq va ma'shuqaning ishqiy kayfiyatlari tasviri darajasidan yuqori

ko'tarilib, keng ijtimoiy-falsafiy mohiyat kasb etadi. Navoiy kuylagan sevgi ishqi ilohiy hamda hayotiy ya'ni insonning insonga bo'lgan sevgisidir.

Qilg'ay insoniyat, ar ko'z madumig'a tutsa uns,
Ey Navoiy, yaxshidur insong'a insondin anis.

Navoiy ta'biricha, sevgi insonning tabiiy xususiyatidir. U inson hayotining mazmunini boyitadi, unga ko'rk beradi, kamolga etkazadi. Sevgisiz hayot fayzsiz va nursizdir.

Xushturur jon-u jahon bila, jonon agar,
Bo'lmasa, jon uylakim o'lmas, jahon zindon erur.

Sevgi insonning eng yaxshi sifatlari: vafo, sadoqat, do'stlik, hamdamlik, mushfiqlik, to'g'rilik va halollik kabi fazilatlar bilan bog'liqdir. Sevgi yo'lida o'oh ham gado ham tengdir.

Ishq aro shohu gado tengdur, gado balki fuzun,
Gar gadolug' aylar o'lsa ishqning yag'mosidin.

Navoiy badiiy tasvir va tavsifning mohir sa'atkoridir. Shoir lirik hissiyotni to'la va mukammal ifodalash, asarning kompazitsion izchilligini, mantiqiy va she'riy tafakkurning uzviy birligini ta'minlash va jonli obrazlar yaratishda tadrij, tazod, tanosub, hsni ta'lil, tajohuli orifona, lozim va malzum, laf va nashr kabi turli san'at usullaridan keng foydalangan.

Yordin ayru kungul, mulkedurur sultoni yo'q,
Mulkum sultoni yo'q jismedururkim joni yo'q.
Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul
Bir qaro tufrog'dekdurkim, gulu rayhoni yo'q.
Bir qaro tufrog'kim, yo'qtur gulu rayhon anga,
Ul qorong'u kechadekdurkim, mahe toboni yo'q.
Ul qorong'u kechakim, yo'qtur mahe tobon anga.
Zulmatedurkim, sarchashmai hayvoni yo'q,
Zulmatekim, chashmai hayvoni oning bo'lmag'ay.
Duzaxedurkim, yonida ravzai rizvoni yo'q,
Duzaxiykim, ravzai rizvondin o'lg'ay noumid.
Bir xumoriydurkim, anda mastlig' imkoni yo'q.
Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki bor,
Hajrdin dardi va lekin vasldin darmoni yo'q.

bu g'azalning tuzilishi quyidagicha:

Yorsiz

ko'ngil-sultonsiz mulk, sultonsiz mulk-jonsiz jism, jonsiz jism-rayhonsiz qora tuproq, rayhonsiz qora tuproq- oysiz tun, oysiz tun-obi-hayoti bo'lmagan zulmat, obi-hayoti bo'lmagan zulmat-jannat bog'idan yiroq bo'lgan duzzax, jannat bog'idan yiroq bo'lgan duzzaxiy-maysiz xumoriy. G'azalning xotimasi: hajrning shunday azobi bo'lsa ham yordan voz kechma.

Yuqorida navoiy ijodidan keltirilgan qisqagina misollar mazmunidan ko'rinib turibdiki, Navoiydek ulkan ijodkorning asarlaridan bahramand bo'lgan har qanday kitobxon o'z hayot mazmunini istagancha boyitish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Badiiy adabiyot bilan doimiy muloqotda bo'lgan odam bunday g'azallardan tegishli xulosa chiqaradi. Adabiyotning qudrati ham shunda. U faqatgina vijdonimizga ta'sir ko'rsatib qolmasdan, ongimiz, madaniyatimiz, his-tuyg'ularimizga ham o'z ta'sirini o'tkazib, bizga ibratli saboqlar beradigan hayot darsligidir.

ADABIYOTLAR

1. E.J.Nasrullayev. —Navoiyning koshifi asroril. Monografiya —Fan ziyosil nashiryoti 2023-yil.
2. Rahim G‘aybulla o‘g‘, M. (2023). “Layli va majnun” dostonida qosid obrazining o'ziga xosligi. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali , 3 (2), 440-442.
3. OBRAZLAR TIZIMIDA DINIY VA DUNYOVIY TAFAKKURNING QIYOSIY TALQINI. R Mardanov. МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҲАҚИҚАТ БИЛИМЛЕНДИРИЎ, 104, 2022. 2022.
4. O‘G‘Li, R. G. A. (2023). Alisher Navoiy siymosi tarixda. *Science and Education*, 4(2), 1016-1019.
5. Mardanov, R. (2023). O ‘ZBEK MUMTOZ SHE’RIYATIDA QOSIDGA MUROJAAT AN’ANASI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (9), 414-420.
6. Xamdamova, X., & Mardanov, R. (2023). ALISHER NAVOIY IJODIDAGI KICHIK JANRLARNI O ‘RGANISH TEXNOLOGIYALARI.